


## 2020-yil yanvar-iyul oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Hozirgi vaqtda xizmatlar sohasi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'zbekistonda uchlamchi sektor, ba'zan xizmatlar sohasi shunday ataladi, mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

2020-yil 1-avgust holatiga ko'ra 27 528 ta faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlardan, xizmatlar sohasida 16 705 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda.


**2020-yil 1-avgust holatiga korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, % da**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining 11 975 ta korxonalar va tashkilotlar kichik biznes subyektlarini tashkil etadi. 2020-yil 1-avgust holatiga ko'ra, ularning ulushi 71,7 % ni tashkil etdi.

**2020-yil 1-avgust holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan,  
kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da**  
*(fermer va dehqon xujaliklardan tashqari)*



2020-yil 1-avgust holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar ulushi 41,9 % ni tashkil etdi.


Yaqin va uzoq xorij mamlakatlar bilan, shuningdek turizm sohasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirish, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar sonining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. Ularning ulushi 7,4 % ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi 5,4 % ni tashkil etdi. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar

sohasida xizmat ko'rsatuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,9 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari sohasida xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 1,9 % ni tashkil etdi.


**2020-yil 1-avgust holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yil yanvar-iyul oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 5 332,2 mlrd. so'mga teng bo'lib, bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 99,8 % ni tashkil etdi.


Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning tarkibida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanganda savdo xizmatlariga 32,2 %, transport xizmatlariga 21,3 %, moliyaviy xizmatlarga 16,5 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlariga 5,1 % da yuqori ulushlar ketma-ketligi kuzatildi.

2020-yil yanvar - iyul oylarida ko'rsatilgan  
bozor xizmatlari tarkibi, % da



2020-yil yanvar-iyul oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 491,2 mlrd. so'mga oshdi. Joriy yilning oldingi (yanvar-iyun oylari) davriga nisbatan xizmatlar hajmi 1 850,7 mlrd. so'mga ko'paydi.

**2020-yil yanvar-iyul oylarida ayrim xizmat turlari  
hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm**



Joriy yilning oldingi (yanvar- iyun oylari) davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga savdo xizmatlari 598,3 mlrd. so'mga, transport xizmatlari 475,8 mlrd. so'mga, moliyaviy xizmatlar 273,5 mlrd. so'mga hamda ta'lim sohasidagi xizmatlar 39,5 mlrd. so'mga oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.


***Ma'lumot uchun:*** 2019-yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlari – 129,6 mlrd. so'm, moliyaviy xizmatlar – 213,7 mlrd. so'm, ta'lim sohasidagi xizmatlar – 46,9 mlrd. so'mga oshgan.

**2020-yil yanvar-iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>5 332,2</b>	<b>99,8</b>
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	275,1	110,7
moliyaviy xizmatlar	882,2	131,0
transport xizmatlari	1 135,5	95,8
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 099,4	98,9
yashash va ovqatlanish xizmatlari	139,9	85,7
savdo xizmatlari	1 715,0	94,1
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	143,4	87,2
ta'lim sohasidagi xizmatlar	174,5	116,3
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	68,7	93,7
ijara xizmatlari	140,4	92,5
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	176,4	90,4
shaxsiy xizmatlar	174,1	90,5
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	73,4	69,1
boshqa xizmatlar	233,6	94,4

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar 131,0 % da, ta'lim sohasidagi xizmatlari 116,3 % da, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 110,7 % da, xizmat turlarida qayd etildi.

**2020-yil yanvar-iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %**




Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari me'morchilik, muhandislik izlanishlari sohasidagi xizmatlar 69,1 %, yashash va ovqatlanish xizmatlari 85,7 %, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar 87,2 % va kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash 90,4 % da kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining uchdan bir qismiga yaqini savdo xizmatlarini tashkil etdi. 2020-yil yanvar-iyul oylarida uning ulushi 32,2 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni transport xizmatlari 21,3 %, moliyaviy xizmatlar 16,5 % va aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 5,1 % egallaydi.



**2020-yil yanvar-iyul oylarida  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da**




2020-yil yanvar-iyul oylarida savdo xizmatlari hajmi 1 715,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 32,2 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 129,6 mlrd. so'mga oshdi.



## 2020-yil yanvar-iyul oylarida savdo xizmatlari tarkibi, % da



Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

2020-yil yanvar-iyul oylarida chakana savdo (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ning ulushi 85,9 % ni tashkil etadi.


Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 9,4 % ga yetdi.



Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 4,7 % ni egalladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish fuqarolik jamiyatida va bozor iqtisodiyotida yuz beradigan jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatish uchun zarur.

Hayotning ko'pgina sohalarida AKT joriy etilishi va rivojlanishi jamiyat, hukumat va biznes bilan bog'liq ko'plab tashqi va ichki jarayonlarni soddalashtirish va tezlashtiradigan muhim element hisoblanadi.

2020-yil yanvar-iyul oylarida aloqa va axborotlashtirish  
xizmatlarining tarkibi, % da



-  Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari
-  Telekommunikatsiya xizmatlari


2020-yil yanvar-iyul oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 272,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Oldingi (yanvar-iyun oylari) davrga nisbatan o'sishi 82,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) katta qismni egallab, uning ulushi 96,7 % ni tashkil etdi.

Bugungi kunda o'quv jarayonini sifatli va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy avtomatlashtirilgan laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, darsliklar va yangi avlod darsliklari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 139,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 2,6 % ga yetdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 93,5 % ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 6,5 % ga to'g'ri keladi.

Valyuta siyosatini erkinlashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lamini kengaytirish, shuningdek, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmini oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

2020-yil yanvar-iyul oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 882,2 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 131,0 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning eng katta qismini pul-kredit sohasidagi vositachilik bo'yicha xizmatlar (91,2 %) tashkil etadi.

**2020-yil yanvar-iyul oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, % da**




**2020-yil yanvar-iyul oylarida hududlar bo'yicha  
xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>5 332,2</b>	<b>99,8</b>
<b>Qarshi sh.</b>	<b>2 594,3</b>	<b>99,1</b>
<b>Shahrisabz sh.</b>	<b>195,6</b>	<b>101,7</b>
<b>tumanlar:</b>		
<b>G'uzor</b>	<b>183,0</b>	<b>94,2</b>
<b>Dehqonobod</b>	<b>120,4</b>	<b>91,6</b>
<b>Qamashi</b>	<b>162,4</b>	<b>92,5</b>
<b>Qarshi</b>	<b>197,6</b>	<b>92,0</b>
<b>Koson</b>	<b>282,5</b>	<b>94,0</b>
<b>Kitob</b>	<b>255,2</b>	<b>94,8</b>
<b>Mirishkor</b>	<b>142,0</b>	<b>99,2</b>
<b>Muborak</b>	<b>213,0</b>	<b>97,2</b>
<b>Nishon</b>	<b>171,6</b>	<b>96,4</b>
<b>Kasbi</b>	<b>116,6</b>	<b>97,6</b>
<b>Chiroqchi</b>	<b>220,3</b>	<b>92,1</b>
<b>Shahrisabz</b>	<b>269,3</b>	<b>91,3</b>
<b>Yakkabog'</b>	<b>208,4</b>	<b>90,4</b>

Hududlar o'rtasida eng katta hajm Qarshi shahri (2 594,3 mlrd. so'm), Koson (282,5 mlrd. so'm), Kitob (255,2 mlrd. so'm), Chiroqchi (220,3 mlrd.so'm) va Yakkabog' (208,4 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Eng kam hajm Mirishkor (142,0 mlrd. so'm), Kasbi (116,6 mlrd. so'm) va Dehqonobod (120,4 mlrd. so'm) tumanlarida kuzatilmoqda.

**2020-yil yanvar-iyul oylarida hududlar bo'yicha  
ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, % da**




Yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Shahrisabz shahri (101,7 %), Mirishkor (99,2 %), Kasbi (97,6 %) tumanlarida va Qarshi shahri (99,1 %)da kuzatildi.



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda respublikaning har bir iqtisodiy salohiyati tuman va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

**2020-yil yanvar-iyul oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida hududlarning ulushi, % da**



Hududlar o'rtasida xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni Qarshi shahri (48,6 %), Koson (5,3 %), Shahrisabz (5,1 %), Kitob (4,8 % ) va Chiroqchi (4,1 %) tumanlari egallaydi.

Hududlar o'rtasida eng kam ulush Kasbi (2,2 %), Dehqonobod (2,3 %), Mirishkor (2,7 %) va Qamashi (3,0 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

*Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi*  
(998)75-221-44-32  
(998)75-220-04-12